

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA
BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.08.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RAXMONOVA SOJIDA MUXAMMADOVNA

**MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI INNOVATSION
KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати мундарижаси

Оглавление автореферата доктора философии (PhD)

Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Raxmonova Sojida Muxammadovna

Ma'ktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish

Рахмонова Сожида Мухаммадовна

Совершенствование методики подготовки студентов направления дошкольное образование к инновационной профессиональной деятельности21

Rakhmonova Sojida Mukhammadovna

Improving the methodology of preparing students in the field of preschool education for innovative professional activity43

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works48

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA
BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.08.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RAXMONOVA SOJIDA MUXAMMADOVNA

**MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI INNOVATSION
KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Ped10625 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz/) hamda “ZiyoNET” axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jo‘rayev Akmal Razzoqovich

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor

Rasmiy opponentlar:

Izbullayeva Gulchehra Valeriyevna

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Turdiyeva Mohira Jo‘raqulovna

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.08.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “23” may soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11 uy. Tel: (0365) 221-29-14; faks: (0365) 221-27-07; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz). Buxoro davlat universiteti, Bosh binosi, 201-xona.

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot – resurs markazida tanishish mumkin (891 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11 uy. Tel.: (0365) 221-29-14; faks: (0365) 221-27-07; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “13” may da tarqatildi
(2026-yil “13” may dagi 21 -raqamli reestr bayonnomasi).



S.Q.Qahhorov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiykengash asosidagi bir martalik
ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

F.X.Xazratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash asosidagi bir martalik ilmiy
kengash ilmiykotibi, p.f.f.d (PhD).,
dotsent

A.R.Hamroyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash asosidagi bir martalik ilmiy
seminar raisi, p.f.d (DSc), professor

KIRISH (falsafadoktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ijtimoiy va ta'limiy muammolarning amaliy yechimini topishda maktabgacha ta'lim-tarbiyaning integratsiyalashuvini ta'minlash, aynan bu jarayonlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash va ularni innovatsion kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash, ta'limda ilg'or texnologiyalar, dasturiy ta'lim vositalardan keng foydalanish, o'qitishning zamonaviy usullaridan foydalanish jarayoni rivojlangan davlatlarning pedagogik tajribalari asosida maktabgacha ta'lim tizimini optimallashtirish masalalar sifatida e'tirof etilmoqda. Xalqaro tajribalarga tayangan holda oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy savodxonligini oshirish, Yevropa va boshqa rivojlangan mamlakatlarda o'quv jarayonida European Credit Transfer and Accumulation System (ECTS) asosida ta'limning kredit-modul tizimini joriy etish, virtual loyihalash (Simulations) shakllarini keng tatbiq etish, axborot-ta'lim muhiti (e-learning) sharoitida ta'limning amaliy yo'nalganligini ta'minlash, bo'lajak mutaxassis kadrlarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Dunyoda ta'lim tizimining barqaror taraqqiyotini ta'minlashda pedagogik kadrlar tayyorlash sifatiga e'tiborni kuchaytirish, ta'lim jarayonida talabalarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, xorijiy tajribalari asosida ta'limiy jarayonlar mazmunini optimallashtirish nazariyasiga oid texnologiyalarni ishlab chiqish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilib, o'quv jarayoniga Milliy klassifikatsiya tizimini to'laqonli joriy etish, ta'lim tizimi va mazmunini innovatsion loyihalash, ta'limning innovatsion metodik modellarini yaratish va ularni muayyan ta'lim amaliyotiga joriy etish dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda pedagog-kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish, innovatsion kasbiy malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash mexanizmini xalqaro ta'lim standartlar asosida ishlab chiqish, oliy ta'lim muassasalari talabalarining innovatsion kasbiy faoliyatiga oid pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishda jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish, zamonaviy ta'limiy vositalardan samarali foydalanish asosida maktabgacha ta'lim yo'nalishi mazmunini optimallashtirish, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish jarayoni dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida, 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2026-yil 5-fevraldagi PF-19-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmonlari, 2018-yil

5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’limsifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” Qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-maydagi 418-son “Maktabgacha ta’lim tizimi uchun kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”, 2019-yil 11-iyundagi 487-son “Maktabgacha ta’lim tizimiga ilg‘or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”, 2020-yil 31-dekabrda 824-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” Qarorlari hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bo‘lajak pedagoglarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash muammolari bo’yicha respublikamizning pedagogik olimlaridan B.S.Abdullayeva, R.X.Djurayev, D.O.Ximmataliyev, U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, X.F.Rashidov, M.I.Tashpulatova, O‘.Q.Tolipov, Sh.S.Sharipov, Z.K.Ismailova, Q.T.Olimov, N.Sh.Ruzikulova, M.B.Urazova, J.A.Hamidov, F.Abdullayev, N.Ahmedova, N.Mamadov, A.Radjiyev, D.Temirov, S.Turg‘unov, M.Yuldashev, R.Aholidinovlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish va samaradorligini oshirish, zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishni takomillashtirish, ta’limiy faoliyatlarning mazmuni, maqsad va vazifalarini aniqlashtirish, tarbiyalanuvchilarni rivojlantirish masalalari bo’yicha respublikamiz olimlaridan F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo‘latova, N.M.Kayumova, H.X.Begmatova, M.N.A‘zamova, Sh.Sodiqova, G.A.Kamilova, R.X.Nosirova, A.A.O‘rozaliyeva, Y.B.Yarmanova, K.A.Sabirova, F.A.Abdug‘opirova, M.U.Azimova, D.B.Toshpo‘latova, D.N.Marasulova, D.D.Zuparova, G.A.Ruziyeva, S.Ch.Xo‘jamiyarovlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini, kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning algoritmik fikrlash ko‘nikmalarini raqamli tafakkurning kompleks omillar ta’sirida uyg‘unlashtirishga yo‘naltirilgan muloqotga o‘rgatish texnologiyalarini takomillashtirish, badiiy asarlar bilan tanishtirish ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlash hamda metodik asoslarini takomillashtirish muammolari bo’yicha Respublikamiz olimlaridan G.O.Najmiddinova,

G.S.Alixodjayeva M.N.Ikromova, D.M.Maxmudova, A.Yu.Isabayeva, Sh.K.Xujamberdiyevlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida didaktik o'yinlar, syujetli-rolli o'yinlar vositasida samaradorlikni ta'minlash, tarbiyalanuvchilarda axloqiy sifatlarni rivojlantirish, kasb-hunarga qiziqishlarini shakllantirish, jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish, bolalarning motorik faoliyatini rivojlantirish muammolari bo'yicha Respublikamiz olimlaridan B.X.Isaqlulova, D.F.Salimova, M.Z.Djurayeva, U.R.Axunov, G.U.Raxmonova, Z.R.Jumaniyazova, N.M.Muxitdinovlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlari L.S.Vigotskiy, A.S.Makarenko, M.S.Makarova, S.A.Kozlova, P.Anisimov, G.Bordovskiy, M.Potashnik, L.Redko, P.Tretyakov, H.A.Vasilyeva, shuningdek, xorijlik olimlar M.Montessori, C.Baume, W.Dennison, A.Hashfeld, S.Gaudreau, L.Harvey, E.Huang, S.Jacqueline, J.Ross, E.Sallis, K.Belaya, T.Morozova, L.Sadikova, R.Slavin, I.Seliverstovalar tomonidan maktabgacha ta'lim sifatini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari o'rganishga doir tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Tadqiqot ishida olib borilgan tahlil natijalari va xulosalar asosida, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish masalasi dolzarb muammo sifatida qaraldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Maktabgacha ta'lim mazmunini modernizatsiyalshning innovatsion texnologiyalari" (2023-2025 y.y.) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarni malaka talablaridagi kasbiy faoliyat ob'yektlari bilan bog'liq innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirishga qaratirilgan xususiyatlarni aniqlashtirish;

bo'lajak maktabgacha ta'lim sohasi mutaxassislarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'qitish samaradorligining funksional imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan modelni takomillashtirish;

talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorgarlik holatini progressiv baholashga qaratilgan mutaxassislikka oid majburiy fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish;

bo'lajak maktabgacha ta'lim sohasi mutaxassislarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorgarligini ta'minlovchi metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida oliy ta'lim muassasalarining Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, Buxoro davlat pedagogika instituti, Shahrisabz davlat pedagogika instituti va Navoiy davlat universitetlari tanlab olinib, 1050 nafar talabalar ishirok etgan.

Tadqiqotning predmeti. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish mazmuni, shakllari, metodlari va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada pedagogik tadqiqotlarda qo'llaniladigan adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish, umumlashtirish, so'rov, pedagogik tajriba, matematik va statistik tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarni malaka talablaridagi kasbiy faoliyat obyektlari bilan bog'liq innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirishga qaratirilgan uzluksiz rivojlanish trayektoriyasi va evristik mexanizmlil faoliyatga tayyorgarlikning diagnostik indikatorlarini adaptiv transformatsiyalash xususiyatlari institutsional legitimatsiyalash orqali aniqlashtirilgan;

bo'lajak maktabgacha ta'lim sohasi mutaxassislarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'qitish samaradorligining funksional imkoniyatlarini, dasturiy ta'lim vositalariga asoslangan ta'lim mazmunini kasbiy identifikatsiyalashni paradigmik rivojlantirishga qaratilgan model pedagogik faoliyatning refleksiv hamda regulyativ mexanizmlariga asosan mazmunan takomillashtirilgan;

talabalarining innovatsion faoliyatga tayyorgarlik holatini progressiv baholashga qaratilgan pedagogik algoritmlar orqali refleksiv ko'nikmalarini transformatsiyalash yuzasidan mutaxassislikka oid majburiy fanlarni pedagogik jarayonning sinergetik xususiyatlarini transdisiplinar integratsiyalashga oid o'qitish metodikasini modifikatsiya qilishning evristik imkoniyatlarini kasbiy refleksiyalash asosida mazmunan takomillashtirilgan;

bo'lajak maktabgacha ta'lim sohasi mutaxassislarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorgarligini ta'minlovchi strategiyalarni loyihalashda "Aktivator", "Problem-based learning", "SWOT-tahlil" metodlarini amaliy kuzatuvchanlik, sinergetik moslashuvchanlik asosida optimallashtirish orqali amaliyotiga singdirish va dinamik trayektoriyasini sintezlashga oid evolyutsion metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalarining "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi talabalarini o'qitish metodikasini takomillashtirishga oid "Maktabgacha ta'limda o'qitish texnologiyasi" fanini o'qitishga oid o'quv dasturining ma'ruza mashg'ulotlari mazmunini qamrab olgan "Maktabgacha ta'limda o'qitish texnologiyasi" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan;

Ta'lim sifatini oshirish, bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, kasbiy kompetensiyalarini hamda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish mazmunini qamrab olgan "Pedagogik mahorat" nomli darslik ishlab chiqilgan;

"Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash, bolalar bilan shlash, ta'limiy faoliyatlarni zamonaviy tarzda tashkil etish, tasavvurlarni shakllantirish mazmunini qamrab olgan "Maktabgacha ta'lim va tarbiyani tashkil etish" nomli elektron darslik ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, metodlar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va

tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik tahlil qilinib asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan model, “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashga asosan ishlab chiqilgan dasturiy ta’lim vositalari oliy ta’lim muassasalarida talabalarni o‘qitish sifati va samaradorligini oshirish, ta’lim jarayonlarini tizimli yondashuv asosida tashkil etish, ta’limni strategik rivojlantirish, keyingi innovatsion faoliyatida kasbiy faoliyatni rivojlantirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ulardan oliy ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha me‘yoriy-huquqiy hujjatlar va chora-tadbirlar dasturlarini tayyorlash, o‘quv jarayoni mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan davlat talablarini ishlab chiqish, innovatsion metodlar asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ishlab chiqilgan metodik tavsiyalardan esa o‘quv reja va dasturlar hamda malaka talablarini mazmunan takomillashtirish, darslik va o‘quv qo‘llanmalar ishlab chiqish va “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi talabalarining oliy ta’lim muassasasini tugatgandan keyingi innovatsion kasbiy faoliyatidagi pedagogik sifatlarini rivojlantirishda foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqot natijalari asosida:

talabalarni malaka talablaridagi kasbiy faoliyat ob‘yektlari bilan bog‘liq innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirishga qaratirilgan uzluksiz rivojlanish trayektoriyasi va evristik mexanizmli faoliyatga tayyorgarlikning diagnostik indikatorlarini adaptiv transformatsiyalash xususiyatlari institutsional legitimatsiyalash orqali aniqlashtirishga oid ma‘lumotlar “Maktabgacha ta’limda o‘qitish texnologiyasi” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 485-son buyrug‘i, 485-0279 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarining pedagogik faoliyatidagi qulaylik, zamonaviy o‘qitish metodlari, pedagogik ta’limiy vositalar, pedagogik texnologiyalarni bola imkoniyatlarini inobatga olgan holda joriy etish ko‘nikmalari rivojlantirilgan;

bo‘lajak maktabgacha ta’lim sohasi mutaxassislarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda o‘qitish samaradorligining funksional imkoniyatlarini, dasturiy ta’lim vositalariga asoslangan ta’lim mazmunini kasbiy identifikatsiyalashni paradigmatik rivojlantirishga qaratilgan model pedagogik faoliyatning refleksiv hamda regulativ mexanizmlariga asosan mazmunan takomillashtirishga oid ma‘lumotlar “Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-son buyrug‘i, 218-746 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarini elementar matematik qonuniyatlarga oid o‘qitishning o‘ziga xos jihatlarini rivojlantirishga erishilgan;

talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorgarlik holatini progressiv baholashga

qaratilgan pedagogik algoritmlar orqali reflektiv ko'nikmalarini transformatsiyalash yuzasidan mutaxassislikka oid majburiy fanlarni pedagogik jarayonning sinergetik xususiyatlarini transdisiplinar integratsiyalashga oid o'qitish metodikasini modifikatsiya qilishning evristik imkoniyatlarini kasbiy refleksiylash asosida mazmunan takomillashtirishga oid ma'lumotlar "Pedagogik mahorat" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 1-avgustdagi 277-son buyrug'i, 277-392 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, bo'lajak pedagoglarning kasbiy mahorati hamda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish asosida muloqot madaniyati va pedagogik texnikalarni o'zlashtirish ko'nikmalari rivojlantirilgan;

bo'lajak maktabgacha ta'lim sohasi mutaxassislarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorgarligini ta'minlovchi strategiyalarni loyihalashda "Aktivator", "Problem-based learning", "SWOT-tahlil" metodlarini amaliy kuzatuvchanlik, sinergetik moslashuvchanlik asosida optimallashtirish orqali amaliyotiga singdirish va dinamik trayektoriyasini sintezlashga oid evolyutsion metodik tavsiyalar "Ilk yoshdagi bolalar bilan ishlash metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-apreldagi 136-son buyrug'i, 418528 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, bo'lajak tarbiyachilar ilk yoshli bolalar bilan noan'anaviy faoliyatni olib borish, ta'lim-tarbiya jaryonlarini samarali tashkil etish mazmundagi innovatsion kasbiy faoliyatlariga qaratilgan tayyorgarlik darajalari rivojlantirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 8 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 36 ta ilmiy ish nashr etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining nashr ruxsatnomasi asosida 1 ta darslik, 4 ta o'quv qo'llanma nashr etilgan bo'lib, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 18 ta maqolalar chop etilgan bo'lib, shundan 5 ta xorijiy jurnallarda, 13 ta Respublika jurnallarida nashr etilgan. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1 ta elektron darslikka mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 138 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash bo'yicha bajarilgan ilmiy-tadqiqot

ishlarining tahlili, innovatsion texnologiyalar asosida maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy-metodik ahamiyatini o'rganish asosida Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari yoritilgan.

Respublikamiz miqyosida 2003-2024-yillarda bajarilgan dissertatsiya ishlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish mazmunidagi pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari kam sonda olib borilganligi ushbu dissertatsiya mavzusini "Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish" va ixtisosligini 13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligidan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) tarzida belgilanishi dolzarb masala sifatida qaralishiga asos bo'lib, kasbiy pedagogik faoliyat o'zining mazmuni bo'yicha eksperimental va innovatsion hisoblanib, doimiy ilmiy izlanishlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim sohasi mutaxassislarining kasbiy sifatlarini namoyon bo'lish holatlari, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini rivojlantirishning asosiy komponentlari, ilmiy-metodik ahamiyatining asosiy sifatlarini belgilashda 60110200 – Maktabgacha ta'lim yo'nalishining malaka talablaridagi fanlar katalogi jadvalida izohlangan fanlar tahlil qilinganda jami 8 ta fan ya'ni Majburiy fanlar blokidan (Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish 300 soat 10 kredit, Bolalarning ijtimoiy moslashuvi 180 soat, 6 kredit, Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi 150 soat 5 kredit, Nutq o'stirish metodikasi 120 soat 4 kredit, Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish 180 soat 6 kredit, Tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi 150 soat 5 kredit, Bolalar musiqiy ta'limi metodikasi 150 soat 5 kredit, Tabiat bilan tanishtirish metodikasi 270 soat 9 kredit) jami 1500 soat 50 kreditga oid fanlar mazmuni bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy-metodik ahamiyatiga oid bo'lgan fanlar hisoblanishi aniqlandi.

Tadqiqot davomida majburiy fanlardan "Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish" fanidan elektron darslik ishlab chiqildi – bu auditoriya mashg'ulotiga bag'ishlangan 90 soat 3 kreditni qamrab olgan mazmun bo'lib, "Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi" fanidan o'quv qo'llanma ishlab chiqildi – bu auditoriya mashg'ulotiga bag'ishlangan 30 soat 1 kreditni qamrab olgan mazmun bo'lib, "Nutq ostirish metodikasi" fanidan o'quv qo'llanma ishlab chiqildi – bu auditoriya mashg'ulotiga bag'ishlangan 30 soat 1 kreditni qamrab olgan mazmun bo'lib, tanlov fanlardan "Maktabgacha ta'limda o'qitish texnologiyalari" fanidan o'quv qo'llanma ishlab chiqildi - bu auditoriya mashg'ulotiga bag'ishlangan 40 soat 1,33 kreditni qamrab olgan mazmun bo'lib, "Ilk yoshdagi bolalar bilan ishlash metodikasi" fanidan o'quv qo'llanma ishlab chiqildi - bu auditoriya mashg'ulotiga bag'ishlangan 30 soat 1 kreditni qamrab olgan mazmun bo'lib, ushbu ishlanmalar real ta'lim amaliyotiga joriy qilinganligi, umumiy mazmunda izohlanadigan bo'lsa auditoriya mashg'ulotiga bag'ishlangan 220 soat 7.33 kreditga oid mazmun bo'lajak maktabgacha ta'lim sohasi

mutaxassislarining innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qildi.

60110200 – Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashni rivojlantirish jarayonini amalga oshirishda innovatsion o'quv-metodik va dasturiy ta'lim vositalari bilan ta'minlashga oid bo'lgan umumiy yuklamaning va belgilangan kredit miqdorining 15 % ulushiga ya'ni samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlar amalga oshirildi

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda didaktik imkoniyatlardan samarali foydalanish nafaqat o'quv jarayonining sifatini oshiradi, balki o'qituvchi va talaba o'rtasidagi interaktiv aloqalar asosida ularni amaliy real faoliyatga tayyorlab, yangi bilimlarni osonroq va samarali o'zlashtirishga, bo'lajak maktabgacha ta'lim sohasi mutaxassisleri har tomonlama rivojlangan mutaxassislar sifatida shakllanadilar.

Dissertatsiyaning **“Dasturiy ta'minot, takomillashtirilgan model va ishlanmalar asosida bo'lajak tarbiyachilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida mutaxassislikka oid majburiy fanlar bo'yicha o'quv jarayonining dasturiy metodik ta'minoti hamda Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy faoliyatiga oid kompetentligini rivojlantirishning takomillashtirilgan modeli orqali dars mashg'ulotlarini innovatsion ishlanmalar asosida o'tkazish metodikasi bayon etilgan.

O'quv jarayonining elektron-metodik ta'minotini raqamli texnologiyalar asosida yaxshilash ta'lim tizimini yanada samarali va qiziqarli tarzda tashkil etishga imkon berdi. Shaxsiy yondashuvlarni qo'llash, maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalariga ta'lim resurslarini raqamli vositalar orqali taqdim etish va o'quv jarayonini takomillashtirish orqali ta'lim sifatini oshirishga xizmat qildi. Ta'limda bunday yondashuvlar, talabalarning bilim olish jarayonini kengaytirish va zamonaviy ta'lim metodlarini joriy etish orqali o'qish samaradorligini oshirdi.

60110200 – Maktabgacha ta'lim yo'nalishining malaka talabalaridagi fanlar katalogi jadvalida keltirilgan fanlardan “Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish” fanlarining mazmuni, bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini kasbiy faoliyatiga oid kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu fan bo'yicha dars mashg'ulotlarini samarali tashkil etish, talabalarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda zamonaviy texnologik yondashuvlar bilan tanishtirish uchun elektron darsliklardan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'lishi nazariy asoslandi.

Dasturiy ta'lim vositalari yordamida ko'rgazmalilikni ta'minlash va dars mashg'ulotlarini aniq va tushunarli tarzda tashkil etishga katta e'tibor qaratilib, “Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish” elektron darsliklari ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilindi va tajriba-sinov dars mashg'ulotlari o'tkazildi.

“Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish” fani elektron darslikda maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari, maqsadi, bolalarning aqliy ko'nikmalari, jismoniy holati hamda axloqiy qadriyatlarini shakllantirishga yordam beruvchi tavsiyalar o'rin olgan bo'lib, u o'zining oson o'qilishi, tushunarligi va barcha kerakli ma'lumotlarni to'liq o'zida mujassamlashtirganligi, bilan ajralib turadi. Har bir mavzu alohida yondashuv asosida yoritilib, taqdimotlar, foto lavhalar va video materiallar yordamida talabalarga tushunarli va interaktiv tarzda taqdim etildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. “Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish” fani elektron darslik dasturining bosh oynasi

“Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish” nomli elektron darslik maktabgacha ta’lim sohasi uchun kreativ fikrli, innovatsion g’oyali, kasbiy yuqori va amaliy jihatlarini chuqurroq o’rganishga yo’l ochib berdi. Ushbu darslik talabalarga nafaqat kasbiy bilimlarni o’rganishga, balki ularni real ta’lim jarayonida salohiyatli pedagog kadrlarni tayyorlashda muhim o’rin tutdi. Elektron darslik, maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalariga ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning nazariy yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga tayyorlashga ham xizmat qilishi nazariy asoslandi.

“Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish” nomli elektron darslik komponentlari tarkibidagi ma’ruza mashg’ulotining innovatsion dars ishlanmasi ishlab chiqildi. Bo’lajak maktabgacha ta’lim sohasi mutaxassisleri ishtirokida innovatsion dars mashg’ulotlarini tashkil etish va innovatsion metodlardan foydalanish hamda dasturiy ta’lim vositalarini o’quv jarayonlarida maqsadli qo’llagan holda ta’limiy faoliyatda yuqori samaradorlikka erishildi. Innovatsion ta’lim metodlari talabalarning faolligini hamda ta’lim olish jarayonidagi motivatsiyalarini oshirib, erkin va tanqidiy fikrlash orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda xizmat qildi. Dasturiy ta’lim vositalari esa dars mashg’ulotlarni yanada interaktiv va qiziqarli bo’lishi, talabalarning bilimlarni mustahkamlash va nazariy ko’nikmalarini oshirishga erishildi.

Innovatsion dars ishlanmasini ishlab chiqish jarayonida “Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish” nomli elektron darslikning muhim tarkibiy qismi hisoblangan “Hozirgi jamiyatda tarbiyachi shaxsiga qo’yiladigan talab va vazifalar” mavzusi doirasida darsning rejalari, o’quv mashg’ulotining maqsadi, o’qituvchining pedagogik vazifalari hamda o’quv faoliyatidan kutilayotgan natijalar ilmiy-metodik jihatdan asoslangan.

Ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish va uning mazmunini boyitish maqsadida zamonaviy metodlardan biri - “Aktivator” metodi asosida talabalarning bilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qilib, ularni passiv tinglovchi maqomidan

faol ishtirokchi darajasiga olib chiqdi. Ushbu metod asosida o'quv faoliyatini tashkil etishda guruhli ishlash shakliga alohida e'tibor qaratildi, bu esa fikr almashish va muammoli vaziyatlarni hamkorlikda hal etish ko'nikmalarini rivojlantirdi.

Dars jarayonida didaktik vositalardan tizimli va maqsadga muvofiq foydalanilib, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari hamda innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida mashg'ulot mazmuni yanada boyitilib, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashda nostandart test topshiriqlaridan foydalanilib, ularning mustaqil fikrlash darajasini aniqlashga alohida e'tibor qaratildi.


Mazkur innovatsion dars ishlanmasining texnologik xarita ham ishlab chiqilib, unda o'quv jarayoni to'rt bosqichda amalga oshirildi: kirish bosqichi (10 daqiqa), asosiy bosqich (40 daqiqa), fikrlash (refleksiya) bosqichi (20 daqiqa) hamda yakuniy bosqich (10 daqiqa). Har bir bosqichda o'qituvchi va talabaning aniq vazifalari belgilanib, ta'lim jarayonining izchilligi va mantiqiyligi ta'minlandi. Mazkur innovatsion dars ishlanmasi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga samarali joriy etish orqali talabalarning faolligini oshirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qildi. "Aktivator" metodidan foydalanish, guruhli ishlashni yo'lga qo'yish va nostandart baholash usullarini qo'llash ta'lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo'ldi.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid fanlar asosida dasturiy ta'lim vositalari orqali innovatsion kasbiy faoliyatga tayyor bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassisi modeli mazmunan takomillashtirildi.

Takomillashtirilgan ushbu model, maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish kasbiy faoliyatga tayyorlashda yangicha yondashuvni ifodalaydi. Model "Maqsad", "Tashkiliy", "Mazmun", "Kasbiy sifatlar", "Natija" nomli asosiy tarkibiy qismlardan tashkil topgan.

Malaka talablari: Oliy ta'lim muassasalarining 60110200 – Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr kasbiy faoliyat tavsifi, kasbiy faoliyatining sohalari, kasbiy faoliyatlarining ob'yektlari, kasbiy faoliyatlarining turlari, kasbiy vazifalari, kasbiy kompetensiyalariga ega bo'lishi izohlangan (2-rasmga qarang).

Model maqsadi: Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirishda, tashkiliy-metodik jihatlari tahlil qilinib, malaka talablarini bajarish orqali talabaning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga oid fanlardan o'quv-metodik hamda didaktik ta'minot, dasturiy ta'lim vositalarini ishlab chiqish va ta'lim jarayonida foydalanish asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish jarayoni amalga oshirilib, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda pedagogik va psixologik nazariyalarni amaliyotga tatbiq etish, ularning rivojlanishiga mos keladigan ta'lim metodlaridan foydalanishga asoslangan o'quv jarayonini tashkil etish, bolalar bilan muloqotda bo'lishning innovatsion metodikalaridan foydalanish orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish nazarda tutildi.



2-rasm. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashning takomillashtirilgan modeli

Tashkiliy komponent: O‘quv-metodik va didaktik ta‘minot, dasturiy vositalar, yondashuvlar, tamoyillarni qamrab olgan.

Yondashuvlar – Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda (Mantiqiy, evristik, integrativ, tanqidiy, kreativ, innovatsion) yondashuvlar asosida amalga oshirildi.

Mazmun komponent: dars shakllari, didaktik shart-sharoitlar, innovatsion texnologiyalar, metodlarni qamrab olgan.

Metodlar – Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirishda innovatsion ta‘lim metodlaridan Aktivator metodi, Problem-based learning, “SWOT-tahlil” ishlab chiqilib, ta‘lim jarayonida foydalanildi. Ushbu innovatsion ta‘lim metodlari talabalarda faollikni oshiradi va hamkorlikda faoliyat olib borish ko‘nikmalarini hosil qilishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Aktivator metodi (Active Learning Method) – bu o‘quv jarayonida talabalarni faol ishtirok etishga undovchi va ularga o‘z bilimlarini mustahkamlashga yordam beradigan ta‘lim metodi sifatida qaralib, asosiy maqsad, talabalarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirish bo‘lib, talabalar o‘zlarining fikrlarini ifoda etish, savollar berish, bahs-munozaralarda qatnashish va mustaqil ravishda fikr yuritish orqali o‘qish jarayonida faol ishtirok etdilar.

SWOT-tahlil metodi – mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qilishini qamrab olgan.

Problem-Based Learning (Muammoli ta‘lim metodi) - bu metod talabalarga real hayotdagi muammolarini hal qilish orqali bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish imkoniyatini yaratadigan ta‘lim metodidir. Ushbu metodda talabalar mustaqil ravishda yoki guruh bo‘lib ishlash orqali amalga oshiradi va o‘rganganlarini amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasiga ega bo‘ldi.

Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashning takomillashtirilgan modeli zamonaviy pedagogik talablar asosida talabalarning kasbiy malakalarini oshirish, innovatsion yondashuvlarni o‘rganish va amaliyotga tadbiq etish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Bu takomillashtirilgan modelni joriy etish, maktabgacha ta‘lim tizimida innovatsion fikrlaydigan malakali kadrlar tayyorlash va yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etdi.

60110200 – Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishining o‘quv rejasidagi mutaxassislikka oid majburiy fanlar blokidagi “Maktabgacha ta‘lim-tarbiyani tashkil etish” fanidan ishlab chiqilgan elektron darslikining ma‘ruza, amaliy mashg‘ulotlarining dasturiy vositalar asosida texnologik xaritalari va innovatsion dars ishlanmasi ishlab chiqilib, tanlangan tajriba guruhlari o‘quv jarayonlarining dars mashg‘ulotlarida foydalangan holda o‘qitish metodikasi mazmunan takomillashtirilib, bo‘lajak Maktabgacha ta‘lim sohasi mutaxassisini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash, mustaqil fikrlaydigan mutaxassis pedagogik kadrlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda foydalanildi va keyingi jarayonlarda ham xizmat qilishi nazariy asoslandi.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari bilan dars mashg'ulotlarini innovatsion ishlanmalar asosida o'tkazish, zamonaviy dasturiy vositalar, ta'lim texnologiyalari, talabalarning kasbiy faolligini oshirish yo'lida xizmat qiluvchi noan'anaviy metodlarni o'rinli qo'llash Maktabgacha ta'lim sohasida sifat va samaradorlikka erishishga yo'l ochib berdi.

Dissertatsiya ishining **“Pedagogik tajriba-sinov ishlari va olingan natijalar tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish va o'tkazish metodikasi yoritilib, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarining matematik statistik tahlili va samaradorlik darajasi haqidagi fikrlar bayon qilingan.

Tajriba natijalarini statistik tahlil qilish maqsadida K.Pirsonning χ^2 mezoniga muvofiq tajriba va nazorat guruhlari talabalarining birinchi bosqich yakuniy ko'rsatkichlari bilan ikkinchi, uchinchi va yakuniy bosqich ko'rsatkichlari o'zaro qiyosiy tahlil qilindi (1-jadvallarga qarang).

1-jadval

Tajriba-sinov ishlarida qatnashgan talabalarining dastlabki va oxirgi natijalari

Guruhlar	Talabalar soni	Baholar							
		TB	TO	TB	TO	TB	TO	TB	TO
		“2”		“3”		“4”		“5”	
Buxoro davlat pedagogika instituti									
Tajriba	167	5	0	95	27	61	121	6	19
Nazorat	166	9	1	86	82	68	76	3	17
Shahrisabz davlat pedagogika instituti									
Tajriba	167	7	0	83	21	70	129	7	17
Nazorat	165	6	1	79	77	77	79	3	8
Navoiy davlat universiteti									
Tajriba	192	6	0	91	16	90	162	5	14
Nazorat	191	7	1	86	84	94	97	4	9
Uchta OTM bo'yicha									
Tajriba	526	18	0	269	64	221	412	18	50
Nazorat	522	22	1	251	243	239	252	10	24

